

EKVIVALENTSIZ LEKSIKANI TARJIMA QILISH USULLARI

Olimov Xurshidjon Yunusaliyevich

Q‘oqon DPI ,assistent-o‘qituvchisi
xurshidolimov55@gmail.com mobile: +998911384114

Sobirova Gavxaroy Abdurqshid qizi

Q‘oqon DPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida ekvivalentiz leksikani tarjima qilishning asosiy usullari – ranskripsiya, transliteratsiya, kalkalash, ekspressiv tarjima, o‘zlashtirish, izohli tarjima, madaniy moslashtirish va asliy tarjima usullari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, ekspressiv - kontekstual tarjima, o‘zlashtirish, izohli tarjima

Аннотация: В этом исследовании анализируются основные способы перевода эквивалентной лексики – транскрипция, транслитерация, калькирование, экспрессивный перевод, заимствование, пояснительный перевод, культурная адаптация и аутентичный перевод.

Ключевые слова: транскрипция, ранслитерация, калькирование, экспрессивно-контекстуальный перевод, адаптация, заимствование, комментированный перевод

Abstract: This research analyzes the main methods of translating equivalent vocabulary, including transcription, transliteration, calquing, expressive translation, adaptation, explanatory translation, cultural adaptation, and literal translation.

Keywords: Transcription, transliteration, loan translation (Calque), Expressive-contextual translation, Adaptation (Naturalization), Annotated translation (Descriptive translation)

KIRISH

Ekvivalentsiz leksikani tarjima qilish muammosi tarjima nazariyasida muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ekvivalentsiz leksika – bu bir tilda mavjud bo‘lib, boshqa tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti bo‘lmagan so‘zlar yoki iboralardir. Bu hodisa lingvistik, madaniy va tarixiy tafovutlar tufayli yuzaga keladi. Ushbu maqolada ekvivalentiz leksikani tarjima qilishning asosiy usullari, jumladan, transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, ekspressiv tarjima, o‘zlashtirish, izohli tarjima, madaniy moslashtirish va asliy tarjima usullari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur tadqiqotda taqqoslash, tahlil va tasnif metodlaridan foydalanildi. Fransuz tilidan ingliz tiliga o‘zlashtirilgan ekvivalentsiz leksikani tarjima qilish usullari o‘rganildi va ular amaliy misollar asosida baholandi. L. S. Barxudarov va V.

N. Komissarov¹⁴ kabi tarjima nazariyotchilarining fikrlari tadqiqotda nazariy asos sifatida qo‘llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ekvivalentsiz leksikani tarjima qilishda quyidagi asosiy usullar ajratildi:

1. Transkripsiya va transliteratsiya

- Transkripsiya: so‘z talaffuzi saqlanib tarjima qilinadi (masalan, *Croissant* → *Croissant*).
- Transliteratsiya: harfiy yozilish saqlanadi, lekin talaffuz o‘zgarishi mumkin.

2. Ekspressiv yoki kontekstual tarjima

- So‘zning ma‘nosi tushuntiriladi yoki kontekstga mos tarjima qilinadi (masalan, *Déjà vu* → *A feeling of having already experienced something*).

3. Kalkalash (so‘zma-so‘z tarjima)

- So‘z tarkibiy qismlariga bo‘linib tarjima qilinadi (masalan, *Coup d’état* → *Blow of state*).

4. O‘zlashtirish (assimilyatsiya)

- So‘z yangi til fonetik va grammatik qoidalariga moslashadi (masalan, *Restaurant (fransuzcha)* → *Restaurant (inglizcha)*).

5. Izohli tarjima

- Ma‘noni batafsil tushuntirish orqali tarjima qilinadi (masalan, *Joie de vivre* → *The joy of living*).

6. Madaniy moslashtirish

- Maqsadli til madaniyatiga mos keladigan muqobil iboralar bilan almashtiriladi (masalan, *Bastille Day* → *French National Day*).

7. Asliy tarjima

- So‘z yoki iboralar tarjima qilinmay, asliy holda saqlanadi (masalan, *Rendezvous, Chauffeur, Faux pas*).

Ushbu usullar tarjima jarayonida kontekst va ma‘no nozikliklarini hisobga olgan holda qo‘llanilishi lozim.

Ekvivalentsiz leksikani tarjima qilishda asosiy qiyinchilik – ma‘no diapazonidagi farqlarning mavjudligi hisoblanadi. Barxudarov ekvivalentsiz birliklarni uch guruhga ajratadi: *to‘liq ifoda, qisman muvofiqlik va mos kelmaslik*.¹⁵ Komissarov esa tarjima transformatsiyalarini leksik va grammatik o‘zgarishlarga ajratadi. Shu sababli, tarjimonlar turli usullarni qo‘llash orqali ekvivalentiz so‘zlarni aniq va tushunarli tarzda tarjima qilishlari lozim.

XULOSA

Ekvivalentsiz leksikani tarjima qilishda eng muhim vazifa – matnning mazmunini va kontekstini saqlab qolishdir. Buning uchun tarjimon turli usullardan foydalangan holda, so‘zning hissiy va madaniy yukini iloji boricha to‘liq yetkazishga

¹⁴ Бархударов Л. С. Язык и перевод... – С. 74.

¹⁵ Комиссаров В. Н. Теория перевода... – С. 172–173.



harakat qilishi kerak¹⁶. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tarjima jarayonida kontekst va madaniy omillar muhim rol o‘ynaydi hamda tarjimaning sifati bevosita tarjimonning usul tanlash mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бархударов Л. С. Язык и перевод: Вопросы общей и частной теории перевода. – М.: Международные отношения, 1975. – 240 с.
2. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 254 с.
3. Алимов В. Теория перевода. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 160 с.

¹⁶ Алимов В. Теория перевода. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 160 с